

“Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorda belgilangan vazifalar ijrosiga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi

Bugun, Milliy matbuot markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19- martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5032-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosiga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi.



Ma’lumki, 2021-yil 19-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5032-sonli qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan fizika sohasini rivojlantirish va bu boradagi ishlarni jadallashtirish, yoshlarni ushbu fanga qiziqtirish hamda umumiy o’rta va oliy ta’lim dasturlarining uzviyligini ta’minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo’yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Qarorga ko’ra, Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti va Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutiga fizika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Dsc) ilmiy darajalarini berish vakolati taqdim etildi.

Shuningdek, qaror ijrosini ta’minlash maqsadida 2022-yil uchun fizika yo’nalishidagi tayanch doktorantura, doktorantura va maqsadli doktorantura kvotalari soni qariyb 1,5 baravarga oshirilishi natijasida ushbu yo’nalishda tahsil olayotgan doktorantlar soni 100 nafardan dan oshdi. 2021-yilda fizika yo’nalishi bo’yicha 55 nafar doktorant tahsil olgan. Viloyatlardagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga ilmiy darajali kadrlar yetkazib berish maqsadida Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan Andijon, Samarqand, Farg’ona va Qoraqalpoq davlat universitetlaridan maqsadli doktorantlar qabul qilingan.

“Bundan tashqari, ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2021-yil noyabr oyida O‘zbekiston birinchi marta “Fizika -2021” fiziklar Forumi tashkil etildi” – deydi vitse-prezident S.Mirzayev.

Shuningdek, matbuot anjumanida so‘zga chiqqanlar ilm-fan va ta’lim integratsiyasi, ilmiy ishlarni tijoratlashtirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga ham alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Matbuot anjumani yakunida jurnalistlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.